

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

Кириш сўзи	6
1. Xolbekov Abdug‘ani KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
2. Убайдуллаева Раиса ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
3. Сеитова Зухрагон ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
4. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
5. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
6. Ходжаев Собир ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
7. Абдувалиева Мумтозхон СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
10. Nematova Dilfuza KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
11. Eshmanova Iroda TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
12. Teshayev Doniyor OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
13. Pخomov Umrbek O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
14. Nurqulov Bunyod YOSHLAR SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
15. Qobilov Uchqun DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114


16. Izzatulloeva Kamilla IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
17. Burxanov Xusniddin AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
18. Imomova Nozimaxon O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Nematova Dilfuza,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
Itimoiy fanlar fakulteti
Sotsiologiya kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)
e-mail: dilfuzanematova58@gmail.com

KAMBAG'ALLIKNI O'RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423470>

ANNOTATSIYA

Kambag'allik – har qanday zamonaviy jamiyatda uchraydigan o'ziga xos bir sotsial hodisadir. Bu o'zida bir qancha sotsiologik tushunchalar va tamoyillarni mujassam etgan global ko'rinishdagi ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Kambag'allik jamiyat a'zolarining iqtisodiy holatidagi farq sifatida har doim insoniyat tarixida ijtimoiy holatning hamrohi bo'lib kelgan. Insonlar turli aqliy va jismoniy qobiliyat tufayli farovonligini oshirish uchun aqliy va jismoniy qobiliyat yo'q insonlardan ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lib kelgan. Masalan, yoshlar keksalarga qaraganda o'z farovonligini ko'tarish uchun ko'proq imkoniyatga ega, mol-mulk yig'ish va uni tasarruf etish hamda tejashda esa mehnat bilan band bo'lgan insonlarga qaraganda pensionerlar ko'proq imkoniyatga ega, ko'p bolali oilalarga qaraganda befarzand oilalarning xarajatlari kamroq, to'liq oilalarga qaraganda to'liqsiz oilaning ta'minotidagi imkoniyatlari kamroq, jismonan sog'lom odamga qaraganda nogironligi bor shaxsning jamiyatda boy bo'lish imkoniyati bir muncha kamroqdir, iqtisodiy jihatdan farovon hududlarda boy bo'lish ehtimoli yuqoriroqdir.

Kalit so'zlar: pensionerlar, kambag'allik, Tomas Robert Maltus, progress, "Boylik va qashshoqlik", "tabiiy ijtimoiy hodisa", "Engel qonuni", konsepsiya, statistika, integratsiya, prizma, yondoshuvlar.

Нематова Дильфуза,
Национальный университет Узбекистана
Факультет Социальных наук
Старший преподаватель (PhD.) кафедры Социологии
e-mail: dilfuzanematova58@gmail.com

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ БЕДНОСТИ

АННОТАЦИЯ

Бедность – уникальное социальное явление, встречающееся в любом современном обществе. Это одна из глобальных социальных проблем, воплощающая в себе несколько социологических концепций и принципов. Бедность, как различие в экономическом положении членов общества, всегда была спутником социального статуса на протяжении всей

истории человечества. Люди с различными умственными и физическими способностями имели больше возможностей улучшить свое благополучие, чем люди без умственных и физических способностей. Например, у молодых людей больше возможностей улучшить свое благосостояние, чем у пожилых, у пенсионеров больше возможностей накапливать, управлять и сберегать имущество, чем у работающих людей, у бездетных семей меньше расходов, чем у многодетных семей, у неполных семей меньше возможностей обеспечить себя, чем у полных семей, у человека с ограниченными возможностями несколько ниже шансы стать богатым в обществе, чем у физически здорового человека, а вероятность стать богатым в экономически благополучных регионах выше.

Ключевые слова: пенсионеры, бедность, Томас Роберт Мальтус, прогресс, «Богатство и бедность», «естественное социальное явление», «Закон Энгеля», концепция, статистика, интеграция, призма, подходы

Nematova Dilfuza,
National University of Uzbekistan
Faculty of Social Sciences
Senior Lecturer (PhD)
e-mail: dilfuzanematova58@gmail.com

SCIENTIFIC THEORETICAL APPROACHES TO THE STUDY OF POVERTY

ABSTRACT

Poverty is a specific social phenomenon that occurs in any modern society. It is one of the global social problems that embodies a number of sociological concepts and principles. Poverty, as a difference in the economic status of members of society, has always been a companion of social status throughout human history. People have had more opportunities to improve their well-being than people without mental and physical abilities due to their different mental and physical abilities. For example, young people have more opportunities to improve their well-being than the elderly, pensioners have more opportunities to accumulate, manage, and save property than working people, childless families have fewer expenses than families with many children, single-parent families have fewer opportunities to provide for themselves than complete families, a person with a disability has a slightly lower chance of becoming wealthy in society than a physically healthy person, and the probability of becoming wealthy in economically prosperous regions is higher.

Keywords: pensioners, poverty, Thomas Robert Malthus, progress, “Wealth and Poverty”, “natural social phenomenon”, “Engel's Law”, concept, statistics, integration, prism, approaches

KIRISH

Kambag'allik tufayli insonlar jamiyat stratifikatsiyasida tabaqalanadi va odamlarni bir-biridan ajratiladi, ba'zida esa, kambag'allik insonning yaxshi hayotga erishish uchun va sotsial mobillik jarayonlarida ishtirok etishlari uchun rag'bat ham bo'lishi mumkin.

XVIII asrlarga kelib, sotsiologlar va iqtisodchilar kambag'allikni sanoat rivojlanishining muqarrar oqibati deb hisoblaganlar. O.Kontning fikricha, yangi ijobiy jamiyatda tadbirkorlar (boshqaruvchilar) va ishchilar sinflari bo'ladi. Ushbu jamiyatda qat'iy iyerarxiya mavjud. Mulk ishlab chiqaruvchilar, fermerlar, bankirlar, savdogarlar qo'lida bo'lib, ular uchun bu huquq emas, balki burch va majburiyatdir. Ular kapitalni yaratish va boshqarish, ish o'rinlarini yaratish uchun “zaruriy ijtimoiy funktsiya”ga ega. Bu jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy muammolari bilan pozitivist faylasuf va olimlar shug'ullanadi. Siyosiy hokimiyat bankirlarga tegishli bo'lib, ular professional maslahat oladilar. O.Kont bunday tashkilot bilan jamiyat o'zini-o'zi takomillashtiradi va o'zini o'zi tuzatadi, degan haqiqatdan kelib chiqdi. Bu qattiq, yopiq, o'z-o'zini tartibga soluvchi tizim bo'lib, har bir element o'z vazifasini bajaradi va natijada jamiyat tabaqalashuvdagi kambag'allar qatlami boylar hisobiga shakllanadi shuning uchun boylar jamiyatdagi ehtiyojmandlarni qo'llab-quvvatlashi lozim [1], deb ta'kidlaydi.

METODOLOGIYA

Siyosiy iqtisod klassik olimi Adam Smit ishchilarning ish haqi milliy boylik o'sishi bilan bog'liq holda o'sishi lozimligini ta'kidlagan. U mehnat uchun haq iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va adolat bilan belgilanishi barcha ishchilarning mehnatga bo'lgan munosabatini ijobiy o'zgartiradi. Mehnatga bo'lgan ijobiy munosabat esa mamlakatda aholi sonining o'sishiga hissa qo'shadi. Aholi sonining o'sish, o'z navbatida, mamlakat farovonligiga va kambag'allikni qisqartirishga asosiy omil bo'lib xizmat qilishini nazariy asoslagan [2].

Tomas Robert Maltus 1798-yilda o'zining shahar aholisini shakllantirishda qonuniy tajribaga oid ishlarida ijtimoiy rivojlanishning ziddiyatlarini tabiat qonunlari orqali tushuntirgan. T.Maltus "progressiyaning taniqli qonunini shakllantirish, ya'ni aholi sonining o'sish mamlakat taraqqiyoti bilan nomutanosib ravishda sodir bo'lsa, u holda o'sish hayot uchun zarur bo'lgan yashash vositasi faqat arifmetik ravishda o'sadi, bu farq ortiqcha aholining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Aholining ko'pchiligi va mahsulotlar taqchilligi bilan muqarrar ravishda kambag'allik ham kengayib boradi. Natijada, kambag'allik jamiyatning ijtimoiy tuzilishining atributi emas, balki insoniyat mavjudligining universal vositasi kabi juda tez tarqaladi. Biroq, ortiqcha aholi esa epidemiyalar, ocharchilik va urushlar sababli birinchi navbatda nobud bo'ladi" [3], deb ta'kidlagan. XIX asrning boshlarida Yevropada kuchli vabo tarqalishi oqibatida aholi soni deyarli yarmiga qisqargan. Vabodan so'ng ishchilarning haqiqiy daromadlari sezilarli darajada oshgan va aholi asta-sekin sog'aygach, daromadlari kamayib, tug'ilish darajasi ko'tarilgan. Aholi sonining o'sishi ishlab chiqarish o'sishi bilan nomutanosib ravishda o'sish natijasida Yevropada kambag'allar soni ko'payishi kuzatilgan. Bunday vaziyatlarda Maltus tug'ilishni nazorat qilishni taklif qilgan.

Jamiyatning farovonligini ta'minlash choralari sifatida Maltus har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatda mulkdorlar sinfi va ishchilar sinfi bo'lishi kerak, deb hisoblagan. Shu bilan birga, u davlatning boylar va kambag'allar o'rtasidagi daromad taqsimotiga aralashuvini maqsadga muvofiq emas deb hisoblagan, chunki hukmron sinf kambag'allarning katta qismi bilan solishtirganda juda ahamiyatsiz va boyliklarni qayta taqsimlashga urinishlar mamlakatda kambag'allikni keng tarqalib ketishiga olib kelgan. O'z navbatida hukmron sinf esa, mamlakatda kambag'allar soni juda ko'p bo'lganligi sababli kambag'allik muammosini hal qilmay qo'yadi.

Mulkdorlar sinfi ishchilar sinfi mehnatining asosiy iste'molchisi hisoblanib, ishchilar sinfi iste'molining mumkin bo'lgan chegarasi faqat tirikchilik darajasi bo'lib qoladi. Kambag'allarning tirikchilik qilishining yagona yo'li esa, bu ularning jismoniy mehnatini sotish bo'lib qolaveradi. Mamlakatda kambag'allar sonining ko'payishi mehnatni qadrsizlanishiga olib keladi [4], deb ta'kidlagan. Maltusning fikriga ko'ra, kambag'allar daromadlarining oshishi quyi tabaqalarning takror ishlab chiqarishini rag'batlantiradi, "mavjudlik uchun kurash"ni kuchaytiradi va aholi sonining ko'payishi daromadlarning pasayishiga va kamayishiga olib keladi. Bunday holatlarni kambag'allikni rag'batlantiruvchi sotsial omil deb hisoblash mumkin.

E.Dyurkgeym 1893-yilda o'zining "Ijtimoiy mehnat taqsimoti" asarida jamiyat yaxlitligini buzishi mumkin bo'lgan bir qator patologiyalar mavjudligini yozgan. Ulardan ikkitasi – anomiya va majburiy mehnat taqsimoti – asosiy rol o'ynaydi, boshqalari, masalan, o'z joniga qasd qilish va yomon muvofiqlashtirish kamroq ahamiyatga ega. Anomiya deganda, Dyurkgeym aholining haddan tashqari tez o'sishi turli guruhlar o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sirlar hajmini kamaytiradigan, o'zaro tushunishning buzilishiga olib keladigan, ya'ni me'yorlar, qadriyatlar va hokozolarning parchalanishiga olib keladigan holatni tushunadi. Majburiy mehnat taqsimoti haqida gapirar ekan, sotsiolog foyda olish uchun ochko'zlikka yo'l qo'ygan hokimiyat odamlarni o'zlari moslashmagan faoliyat turlariga majbur qiladigan vaziyatni nazarda tutadi. Odamlar baxtsiz va kambag'al bo'lganligi oqibatida, mamlakatdagi tizimni o'zgartirish istagini bildiradi bu esa jamiyatni beqarorlashtirishi mumkin deb ta'kidlagan [5].

ASOSIY QISM

XIX asrning o'rtalarida Yevropada ikki yo'nalish rivojlandi. Bular sotsial-darvinizm va egalitaristik (tenglik tarafdorlari) yo'nalishlardir. Sotsial-darvinizm yo'nalish vakillari M.Veber, G.Spenser, F.Giddings, J.Prudonlar qashshoqlikni ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy jarayoni oqibati deb hisobladilar va uni ijobiy baholaganlar va kambag'allik shaxsning rivojlanishining harakatlantiruvchi

kuch deb hisobladilar. Ularning konsepsiyasi bo'yicha ijtimoiy tengsizlikning muqarrarligi va mavjudlik uchun kurashga asoslangan. Sotsial-darvinistlar jamiyatning tabiiy rivojlanishiga davlat aralashuvini ma'qullamaganlar. Ular kambag'allikni jamiyat evolyutsiyasiga hissa qo'shadigan sotsial omil deb hisoblashgan [6].

Veber yondashuv tarafdorlari kambag'allikni turli sabablarga ko'ra bog'laydilar, ular orasida asosiy iqtisodiy resurs bo'lib, bu yerda mulk mavjudligini alohida ta'kidlaydilar. Ammo uni tengsizlik manbai sifatida yo'q qilish kambag'allik muammosini hal qilmaydi, chunki boshqa omillar ham bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar [7].

Demak, M.Veber obro'-e'tibor va shon-shuhrat bilan ajralib turadigan maqomga alohida urg'u bergan, u odamlarni o'z qarashlari, maqsadi, manfaatlariga ko'ra birlashtiruvchi, turli tamoyil va qadriyatlarga asoslanishi mumkin bo'lgan, ta'sir manbai bo'lgan partiyalardir deb ta'kidlaydi. Maqom ko'p jihatdan kasbiy bandlik, malaka va mehnat bozorida raqobatbardoshlik qobiliyatiga bog'liq. M.Veber jamiyatning mulkiy va sinfiy bo'linishidan iqtisodiy va kasbiy malaka mezonlari bilan ajralib turadigan ijtimoiy qatlamlarga o'tishni qaysidir ma'noda o'z asarlarida aks ettirgan. Veberning asarlarini o'rganish natijasida shunday fikr qilish mumkinki, boylikdan o'z xohishi bilan yuz o'g'irgan, ya'ni kambag'allikni o'z ixtiyori bilan qabul qilgan kishilar haqidagi ma'lumotlar batafsil yoritilganini ko'rish mumkin.

M.Veber o'zining "Protestanlik etikasi va kapitalizm ruhi" asarida Britaniyada aristokratik oilalar, hatto boylik ulardan yuz o'g'irgan taqdirda ham muhim ijtimoiy hurmatga ega. Aksincha, "yangi pul" egalariga ko'pincha nafrat bilan qarashadi, ularni "Oliyjanob kambag'allardir" deb atalishshi bunga misol bo'la oladi [8].

Shuningdek, M.Veber jamiyatni "ijobiy imtiyozli" va "salbiy imtiyozli" sinflarga ajratdi. Kambag'allik ikkinchisiga xos bo'lib, mehnat bozorida foydali sotish uchun mos mulkka, malakaga, maxsus ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lmagan ishchilardan iboratdir. M.Veber mulk va malakadan tashqari shaxsning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi diniy, irqiy, jismoniy jozibadorlik va "ijtimoiy ephillik" omillarini ham belgilaydi. Shunday qilib, M.Veber yondashuvi nuqtayi nazaridan qashshoqlikning iqtisodiy, kasbiy-malakali va siyosiy omillarini ajratib ko'rsatish mumkin. M.Veber kambag'allikni bartaraf etish uchun boshqaruvchilar tomonidan malaka va mehnatni boshqarish qobiliyatini oshirish, mulkka ega bo'lish, ijtimoiy mavqe va obro'ni oshirish, hayot imkoniyatlarini kengaytirish, yangi turmush tarziga rioya qilish, hokimiyatga kirishish va partiyaga a'zo qilish masalalariga e'tibor berish lozim deb hisoblaydi.

Sotsial mobillik nazariyasining asoschisi P.Sorokinning qarashicha, sotsial mobillik kishilarning sotsial pog'onalardan ikki yo'nalish bo'yicha harakat qilishidir. Birinchisi, vertikal yo'nalishda bo'lib, unda yuqori va past darajalarga qarab, ikkinchisi esa gorizontol yo'nalishda bo'lib, unda individ yoki guruhning sotsial daraja bo'ylab o'zgarishini anglatadi [9].

Har qanday jamiyatda ham u yoki bu darajada vertikal mobillik mavjud bo'lganligi hamda qatlamlar o'rtasida harakatlanuvchi kishilar bir qatlamdan boshqasiga yuqoriga ko'chib o'tishi mumkin. Mana shu ko'chib o'tishlarda hamma ham birdek o'ta olmaydi. Qatlamlar orasida "filtrlar", mavjud bo'lib, "filtrlar"dan o'ta olmagan insonlar o'sha qatlamda qolib ketishadi va natijada bu insonlar yig'indisi kambag'allar qatlamini tashkil etadi [10]. Demak, P.Sorokin pastki qatlamdan yuqoriga ko'chib o'tib o'zining sotsial maqomini yaxshilash istagida bo'lgan insonlarning kambag'allikka tushish sababini qatlamlar orasidagi filtrlar, ya'ni saralanib o'tkazishda deb biladi. Ushbu filtrlarning naqadar qattiq qo'l bo'lishi yoki erkin bo'lishi jamiyatda kambag'allar sonini kamayishiga yoki ko'payishiga sabab bo'ladi deb hisoblaydi.

T.Parsons, xususan, turli faoliyat turlari va insoniy fazilatlar har xil baholanishini, ularni baholash qadriyatlar tizimiga, jamiyat maqsadlariga bog'liqligini, bu ijtimoiy tizimda alohida ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [11].

G.Spenser kambag'allikni "tabiiy ijtimoiy hodisa" deb hisoblagan. U o'zining "Ijtimoiy statika" kitobida kambag'allik va tengsizlik jamiyatning o'sishi va tabaqalashuvi bilan birga paydo bo'lishini va jamiyatdagi aholining o'sib borishini doimiy jarayon ekanligini ta'kidlagan. Bundan tashqari "Jamiyat o'sishini to'xtatib bo'lmagani kabi kambag'allikni butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. Qolaversa, kambag'allik ijtimoiy hodisa emas, balki har bir kishining shaxsiy muammosi, ya'ni

individual taqdir va individual tanlovdir. Mukammal insonning o‘zi yo‘q, ba‘zilar ijtimoiy hayotning turli qiyinchiliklariga moslashadi, ba‘zilar esa moslasha olmaganliklari sababli hayotda muvaffaqiyatga erisha olmaydilar” [12], degan fikrni ilgari surgan.

Egalitaristik oqim vakillari K.Marks, F.Engels va E.Reklyular kapitalistik jamiyat va kambag‘allikni tanqid qilganlar, kambag‘allikni ijtimoiy yovuzlik, muayyan turdagi taqsimot munosabatlarining oqibati, kambag‘allik – bu ishlab chiqarish munosabatlaridagi ortiqcha qiymat deb hisoblaganlar [13].

E.Reklyu o‘zining “Boyluk va qashshoqlik” asarida kambag‘allikni o‘ta qashshoqlikdan farqini ko‘rsatib bergan. Uning fikricha, kambag‘allar faqat o‘zining asosiy ehtiyojlarni qondira oladiganlardir. U jismoniy mavjudlikni saqlash uchun zarur bo‘lgan minimal vositalarni hisoblab chiqqan. Minimalga to‘g‘ri kelganlar kambag‘al, to‘g‘ri kelmaganlar esa qashshoq hisoblangan. E.Reklyu kambag‘allikni butunlay yo‘q qilish uchun sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini teng taqsimlash zarur deb hisoblaydi [14].

Fikrimizcha, kambag‘allik deganda, mulkdorlar va mulkdorlarning boyligi ortishiga o‘z mehnati bilan hissa qo‘shganlar o‘rtasida mehnat munosabatlaridagi muvozanatning yo‘qligini tushunish mumkin. Egalitaristlar kambag‘allikning ikki turini keltirib o‘tganlar. Bular mutlaq va nisbiy kambag‘allikdir. Mutlaq kambag‘allik tarixning oldingi davriga nisbatan mehnatkashlar turmush darajasining pasayishi bo‘lsa, nisbiy kambag‘allik mulkdorlar tomonidan olingan daromadning ulushi ortib, ishchilarning ulushi kamayganda sodir bo‘ladi. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda mutlaq va nisbiy kambag‘allikning har ikkala turini ham uchratish mumkin.

XX boshlarida T.Xamfri Marshall va F.fon Xayeklar jamiyatda kambag‘allikning paydo bo‘lishining qonuniyligini ta‘kidlab, inson o‘z ahvoli, jumladan, kambag‘alligi uchun shaxsan o‘zi javobgar bo‘lishi kerak, deb hisobladilar. F.fon Xayek “Mamlakatda kambag‘allikni kuch bilan yo‘q qilib bo‘lmaydi, faqat uning ko‘lamini qisqartirish mumkin, ammo buning uchun aholining umumiy farovonligini oshirish kerak. Umuman olganda, kam sonli kambag‘allik jamoat manfaati uchun zarurdir” [15], deb hisoblaydi.

Kambag‘allikni ilmiy aniqlash borasida bir qancha ilmiy yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, ular orasida kambag‘allik tushunchasini to‘liq ilmiy asoslab beruvchi ilmiy yondashuvning o‘zi mavjud emas. Kambag‘allik tushunchasi o‘z tabiatiga ko‘ra doim o‘zgarib turuvchi va doim bahs mavzusining sababchisi bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda kambag‘allik haqida tushuncha va tasavvur beradigan hamda unga ta‘sir etuvchi omillar haqida bir qancha yondashuvlar bor. Shulardan biri, mutlaq, nisbiy va subyektiv kambag‘allik konsepsiyalaridir.

Mutlaq kambag‘allik konsepsiyasi tiriklik uchun zarur bo‘lgan, ya‘ni mavjud bo‘lish uchun ehtiyojlarni qondiruvchi minimum darajadagi iste‘mol tovarlariga ega bo‘lish yoki inson turmush darajasining minimum darajasini belgilab berishga qaratilgan nazariyalardan biri deb hisoblash mumkin.

Mutlaq kambag‘allik konsepsiyasiga Buyuk Britaniyalik iqtisodchilar va ijtimoiy islohotchilari Charlz But va Jozef Rountrelar asos solishgan. Ch.But va J.Rountre jamiyatdagi har bir oilaning daromadi ularning jismoniy mavjudligini ta‘minlaydigan minimal ehtiyojlarni qondirish uchun etarli bo‘lmasa, kambag‘allikda yashaydi, deb hisoblashgan. Ushbu yondashuv odamga yashab qolishga imkon beradigan ozuqaning minimal narxini hisoblashni, shuningdek, kiyim-kechak, uy-joy va daromadlarda eng kam miqdorni hisoblashni o‘z ichiga olgan [16].

1960-yilda taniqli AQShlik filantropiya ta‘limoti tarafdori bo‘lgan iqtisodchi statist olim Molli Orshanski insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan uy-joy, kiyim-kechak, daromad manbai va boshqa ehtiyojlarni aniqlab, aniq hisoblab bergan. U byudjet so‘rovidan olingan ma‘lumotlardan olingan “Engel koeffitsiyenti”dan foydalangan. Salomatlikni va tiriklikni saqlash uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqatning narxini aniqlash orqali o‘rtacha oilaning umumiy daromadidagi oziq-ovqat xarajatlarining ulushini “Engel koeffitsiyenti”ning o‘zaro nisbatiga ko‘paytirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish mumkin degan xulosaga kelgan. 1961-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlar hukumati kambag‘allikning rasmiy ta‘rifi sifatida M.Orshanskiyning taklifini qabul qildi, unga ko‘ra kambag‘allik ma‘lum tarkib va hajmdagi uy xo‘jaligi uchun qabul qilingan

oziq-ovqat narxidan kelib chiqqan holda aniqlandi, birlamchi ehtiyoj uchun zarur bo'lgan arzonlashtirilgan oziq-ovqatlarni yetkazib berish uch baravar oshirildi [17], natijada yetmishinchi yillarga kelib AQShda kambag'allar soni sezilardi darajada qisqara boshladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu konsepsiyaning yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham bor oziq-ovqatlar va xizmatlarning eng kam miqdorini belgilovchi ro'yxatini aniqlashning murakkabligi bo'lib, ularsiz minimal ehtiyojlarni qondirish mumkin emas. Ammo, insonning yashash joyining geografik joylashuvi va iqlimi doim ham mo'tadil bo'lavermaydi. Ba'zi hududlar juda issiq yoki juda sovuq bo'lishi, namgarchilik o'ta yuqori yoki o'ta quruq bo'lishi mumkinligidan kelib chiqib, oziq-ovqat ratsioni ham shunga mos bo'lishi tabiiydir. Aholining turmush tarzi, milliy ovqatlanish odatlari, geografik va iqlim sharoitini inobatga olib, sezilarli farqlar tufayli M.Orshanskiyning taklifini barcha mamlakatlarda hatto AQShning ham barcha hududlarida bir xilda qo'llab bo'lmaydi.

Nemis iqtisodchi va statist olimi Ernest Engel oila daromadining oshishi bilan oziq-ovqat narxi nisbatan kamayishini aniqladi. E.Engelning "Engel qonuni"ni oziq-ovqat xarajatlari koeffitsiyentlarini aniqlashga va Germaniyada kambag'allikning turli fanlar nuqtayi nazaridan ta'riflash uchun asos bo'lgan. Ushbu koeffitsiyentlar orqali XIX asrning boshlarida Germaniyada kambag'allikning chegarasi aniqlangan [18].

E.Engel tadqiqotining asosiy predmeti mehnatkash oilalar byudjetlarining tuzilishi bo'lgan. U uzoq muddatli statistik ma'lumotlarni tahlil qilish uni oila daromadining oshishi bilan xarajatlar tarkibi o'zgaradi degan xulosaga kelgan. Shu bilan birga, oziq-ovqat xarajatlari ulushi kamayib, kiyim-kechak, issiqlik va uy-joy bilan ta'minlash xarajatlarining ulushi bir xil darajada qolmoqda, madaniy ehtiyojlarni qondirishga sarflanadigan xarajatlar ulushi esa ortib bormoqda degan xulosaga kelgan. Engelning bu xulosalari "Engel qonuni", deb atalgan nazariyada batafsil bayon qilingan. Engel tomonidan ixtiro qilingan statistik ma'lumotlarni yig'ish uchun karta tizimi keyinchalik aholini ro'yxatga olish uchun butun Yevropa bo'ylab ishlatilgan. Birinchi bunday karta tizimi 1871-yilda Tallinda Pavel Jordan tomonidan amalga oshirilgan [19].

Bizningcha, E.Engel kambag'allikning chegarasini hisobga olishda birinchi navbatdagi ehtiyojlarga oziq-ovqat, uy-joy va kiyim-kechakdan tashqari inson uchun muhim bo'lgan maishiy va madaniy muhit ham muhimdir. Masalan, qishning sovuq kunlarida uyni isitish muammosi, madaniy va ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyati ham insonning jamiyatdagi maqomini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Aholini sanoqdan o'tkazishda ro'yxatga olish tadbirida aynan mana shu masalaga e'tibor qaratish aholining qancha qismi kambag'allik chegarasida ekanligini ko'rsatuvchi parametrlar, deb hisoblash mumkin.

Nisbiy kambag'allik konsepsiyasi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq kambag'allik bu daromadi ma'lum bir jamiyatda tan olingan va mavjud iste'mol me'yorlari tufayli ba'zi aholi toifalariga to'laqonli yashashga imkon bermaydigan kambag'allik holatidir. Daromadlari o'rtacha ijtimoiy farovonlik darajasidan sezilarli darajada orqada qolayotgan va mamlakatda keng tarqalgan turmush darajasiga erishish imkoniyatiga ega bo'lmagan oilalar "kambag'al" deb hisoblanadi [20].

Nisbiy kambag'allik konsepsiyasiga Angliyalik iqtisodchi olim Brayan Abel Smit va sotsiolog Piter Taunsendlar asos solganlar. Ular qashshoqlikni oilaning ma'lum vaqt davomida moddiy resurslarning yetishmasligi va normal hayot kechirishi natijasida yuzaga keladigan ahvoli deb bilishgan. Jamiyatda rag'batlantirilgan yoki ma'qullangan turmush sharoitlarining mavjudligi ba'zi kishilar uchun imkonsiz yoki o'ta qiyin sharoitni keltirib chiqaradi va oqibatda kambag'allar qatlamining vujudga kelishiga sabab bo'ladi [21].

Bizningcha, ko'pchilik iqtisodchilar va sotsiologlar daromadi o'rtachaning yarmidan kam bo'lgan oilalarni kambag'al deb hisoblaydilar. Ushbu yondashuvning kamchiliklari jamiyatdagi turmush darajasidagi o'zgarishlarga befarqlikdir. Daromadlari biroz pastroq oila uchun bu haqiqatmi? O'rtacha, lekin har qanday qimmatbaho narsaga (masalan, yangi uy, yangi mashina sotib olish yoki to'y qilish va hokozolar) egalik qila olmaslik kambag'al, deb hisoblanadimi? Daromadlarning umumiy pasayishi bilan tengsizlikning nisbiy o'lchovi saqlanib qoladigan vaziyat ham bo'lishi mumkin, ammo jamiyatda uzoq vaqt saqlanib qolayotgan qiyinchiliklar, taqchiliklar va boshqalar kambag'allikni kengayishiga sabab bo'ladi.

Subyektiv kambag'allik konsepsiyasi. Bu konsepsiya odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ahvolini subyektiv baholashiga asoslanadi. Kambag'allik jamoatchilik fikri asosida yoki jamiyat nuqtayi nazaridan aniqlanadi. M.Orshanskiyning fikricha, "Kambag'allik go'zallikka o'xshaydi, uni ko'rmoqchi bo'lgan tomoshabingagina ko'rinadi" va "Kambag'allik hamisha jamiyatda o'rnatilgan tartiblar orqali aniqlanadi va belgilanadi" [22].

Fikrimizcha, mamlakatda aholining kambag'allik darajasini aniqlash yoki kambag'allik chegaralarini belgilashda avval ishlab chiqilgan aniq standartlar bilan chegaralanib qolmasdan, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy holatlarni inobatga olish hamda jamoatchilik fikrini o'rganish orqali kambag'allik darajasi va chegarasini belgilash lozim. Chunki, ishlab chiqilgan standartlar dunyoning turli davlatlarida jumladan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin. Dunyo mamlakatlarining rivojlanish darajasi turlicha darajada bo'lganligi sababli bu ishlab chiqilgan standartlar barcha davlatlar va jamiyatlar uchun deklarativ xususiyatga ega bo'la olmaydi.

Shuningdek, agar inson o'zini moddiy ehtiyojmand deb hisoblasa, o'zini kambag'al deb hisoblashi mumkin. Bunday holatlarda inson o'zini kambag'allik chegarasidan ancha yuqori bo'lgan oilalar bilan solishtiradi. Natijada insonda "moddiy farovonlikdan mahrum qilinganmi" yoki "unga nisbatan to'siqlar qo'yilganmi" kabi savollar tug'iladi. Farovon hayot tarzini yaratishga qodir bo'lmagan, ammo erishilgan turmush darajasidan qoniqish hosil qilgan oilani kambag'al deb hisoblash doim to'g'ri bo'lmaydi. Bu kabi oilalar o'zlarini jamiyatda o'rta sinf vakillari deb hisoblashadi. Ularni kambag'al deb hisoblash mumkin emas. Demak, kambag'allikni belgilashda jamoatchilik fikrini o'rganish muhim hisoblanadi.

Kambag'allikni belgilashdagi yana bir muhim yondashuv bu kambag'allikni stratifikatsion va statistik konsepsiyalaridir. Stratifikatsion konsepsiya bo'yicha kambag'allar bandlik funksiyasining past elastikligi va o'zini o'zi ta'minlash imkoniyatlari cheklangan odamlardir. Bular jumlasiga keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisi yo'q yosh bolali yoki nogironligi bo'lgan farzandlari bor ayollar, yetim va ota-ona qarmog'isiz qolgan bolalar, ishsizlar, qochoqlar, migrantlar, muomala layoqatisiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslardan iborat aholining ehtiyojmand qatlamini kiritish mumkin [23].

Statistik konsepsiyada kambag'allik aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar bo'yicha umumiy taqsimotda birinchi o'rinlardan 10-15 foizdan kam ta'minlanganlar hisoblanadi [24]. Shuni ham ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda kambag'allik nafaqat farovonlikning iqtisodiy standarti asosida, ya'ni insonning asosiy minimal ehtiyojlarini qondirishda ko'p qirrali prizma orqali, balki sotsiologik standartga asoslanadi. Farovonlikning sotsiologik standarti iste'molga emas, balki ijtimoiy ishtirokiga qaratilgan, ehtiyojlarni qondirish, shaxsning ijtimoiy jarayonlarda to'laqonli ishtirok etishi, asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish va jamiyatga integratsiya qilish imkoniyati bilan belgilanadi.

Chunki, kambag'allar o'z huquqlarini amalga oshirish jarayonida aynan moddiy imkoniyati yo'qligi yoki juda ham kamligi sababli huquqdan foydalanishdan bosh tortadilar. Oqibatda ularning ijtimoiy holati yanada yomonlashadi yoki statik holatda qolib ketaveradi. Bunga misol qilib, bank kreditlarini olish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, ta'lim olish va mutaxassislikka ega bo'lish, mehnat migratsiyasi orqali o'zining iqtisodiy holatini yaxshilashda dastlabki mablag'ning yo'qligi sababli bunday huquqlarni amalga oshirishdan bosh tortishlarini keltirib o'tish mumkin. Kambag'allik muammosini hal qilishga sotsiologik yondashuv davlat byudjeti uchun katta xarajatligi sababli ko'pchilik mamlakatlarda bunday yondashuvni ko'p ham oqlamaydilar.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida 1984-yilga kelib kambag'allikka umumittifoq darajada yondasha boshladilar. Bu yondashuv bo'yicha tabiiy ijtimoiy tabaqalanishni tushunchasiga asoslangan kambag'allik konsepsiyasini ishlab chiqdilar. Unga ko'ra moddiy, madaniy va ijtimoiy resurslarining yo'qligi va yashash joyidagi minimal maqbul turmush tarziga ega bo'lmagan odamlar, oilalar va sotsial guruhlarni kambag'al deb hisobladilar [25]. Kambag'allik muammosi sotsiologiya fani nuqtayi nazaridan o'rganilganda albatta uning aksi bo'lgan boylik masalasi bilan birga o'rganish lozim. O'rta sinflar, kambag'allar va qashshoqlar mehnatining asosiy iste'molchisi bu mulkdorlar,

ya'ni boylar sinfidir. Bu ikki tushuncha doim parallel ravishda o'rganilsa muammoning mohiyati va tabiatini aniqlash mumkin bo'ladi. O'z navbatida muammoning mohiyatini o'rganish esa muammoning yechimiga qo'yilgan birinchi qadam hisoblanadi.

Iqtisodiy fanlar nuqtayi nazardan, kambag'allik va boylik nominal va qiymat mezonlari orqali osongina farqlanadi. Bu yerda ijtimoiy qism iqtisodiy bilan mos keladi. Inson qanchalik ko'p daromadga ega bo'lsa, uning mavqei va farovonligini oshirish imkoniyatlari shunchalik yuqori va keng bo'ladi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, ma'lum darajada, qashshoqlik va boylik toifalari nisbiy bo'lib, bu nisbiylikning o'ziga xos shakllari mavjud [26].

Kambag'allik va boylik tushunchalari barchaga ma'lum tushunchalardir, uning belgilari va chegaralari davlat, jamiyat va din qonunlari bilan aniq ko'rsatilgan. Turli shaxslar va ijtimoiy guruhlarning iste'molchi yo'nalishlari va intilishlari, hayot sifatiga qarashlari turlicha. Ba'zilar daromadlari va imkoniyatlari boshqalarga nisbatan yuqori emasligidan qoniqmaydi, boshqalari nisbatan past daromadlari va imkoniyatlaridan mamnun. Ba'zilar uchun kambag'al bo'lmaslik, obro'-e'tibor yoki boylikka ega bo'lish zarur bo'lsa, boshqalar uchun ular hech narsani anglatmaydi, kambag'al bo'lmaslik farovonlik sharti yoki ramzi emas.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, insoniyat tarixida kambag'allik muammosi doim davlat va jamiyatni xavotirga solib kelgan sotsial hodisadir. Bugungi zamonaviy dunyoda kambag'allikning ilmiy tushunchasi bir muncha kengaytirilgan va turli yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kambag'allikni qisqartirishga doir faoliyat dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida amalga oshirilgan va hozirgi kunda ham bu faoliyat davom etmoqda. Dunyoda global muammolar bor ekan, kambag'allik ham shu global muammolarning nojo'ya natijasi sifatida namoyon bo'laveradi. Bunga misol qilib, global iqlim o'zgarishi tufayli ekotizimning buzilishi, turli kasalliklarning tarqalishi oqibatida pandemiya sharoitlarining yuzaga kelishi, urushlarning turli ko'rinishlari oqibatida insonlar tang holatda qolishi yoki o'z vatanini tashlab boshqa yurtlarga ommaviy ko'chishlari oqibatida kambag'allikka duchor bo'lishlarini keltirib o'tish mumkin.

Kambag'allik muammosini o'rganishda faqatgina iqtisodiy va siyosiy fanlar bilan yondashish yetarli bo'lmaydi. Kambag'allikning sabablarini, mohiyatini va tabiatini o'rganish uchun sotsiologiya fani nuqtayi nazaridan yondashish lozim. Aynan sotsiologiya fani jamiyatda tizimli, strukturaviy va funksional yondashuvlar natijasida kambag'allikni fenomen sifatida to'liq ta'riflab berishi, uning sotsial hodisa ekanligini ilmiy va nazariy asoslab berishi mumkin.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. Конт О. Дух позитивной философии: Слово о положительном мышлении. Пер. с фр. 2-ое изд. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2011. – С.80.
2. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2016. – С.26-27.
3. Pullen J.M. Malthus, Thomas Robert. The New Palgrave Dictionary of Economics. Macmillan Publishers Ltd.L.: Palgrave Macmillan.UK, 2018. – P. 8133-8144.
4. Аникин А.В. Мальтус и мальтузианство. Юность науки: Жизнь и идеи мыслителей-экономистов до Маркса. 2-е изд. – М.: Политиздат, 1975. – С.266-274.
5. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда / Пер. с фр. А.Б.Гофмана, примечания В.В.Сапова. – М.: Канон, 1996. – С.432.
6. Справочное пособие по истории немарксистской западной социологии. АН СССР ИСИ.–М.: Наука.1986. – С.192.
7. Вебер М. Избранное. Образ общества. – М., 1994. Основные понятия стратификации// Социол. исслед. 1994. – №5. – С. 147-156.
8. Weber M. Die Protestantische Ethik und der "Geist" des Kapitalismus. 1905. / Макс Вебер. Протестантская этика и дух капитализма. Избранные произведения. Перевод с немецкого и общая редакция: Ю.Н.Давыдов. – М.: «Прогресс»,1990. – С.44.

9. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М: Политиздат, 1992. – С.376-400.
10. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М: Политиздат, 1992. – С.534.
11. Talcott Parsons on institutions and social evolution: selected writings / Leon H Mayhew, ed. Chicago: University of Chicago Press, 1982. – P.107.
12. Спенсер Г. Социальная статика. Изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества. – СПб.- 1906. – 261 с.
13. Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. – 2-ое изд. – М.: Политиздат. -Т.16.-1960. – С.827.
14. Реклю Э. Богатство и нищета. – М., 1906. – С.33.
15. Thomas Humphrey Marshall. General survey of changes in social stratification in the twentieth century", в кн.: "Transaction of the third world congress of sociology", v. 3, L., 1956, p. 1–18; Хайек Ф Судбы либерализма в XX веке. М.: ИРИСЭН, Мысль; Челябинск: Социум, 2009. – С.337.
16. Both Ch., Rountree J. A Study of Town Life, London, Macmillan, 1901. – Pp.18-21.
17. Orshansky M. Counting the Poor: Another Look at the Poverty Profile. Social Security Bulletin. 1965; Vol. 28. – Pp.35-39.
18. Ткаченко А.А. Эпоха реформ германской статистики и Э.Энгел. Вопросы статистики. М.: 2017; (5). – С.75-84.
19. Engel E. Der Wohlthatigkeitscongreß in Brussel im September 1856 und die Bekämpfung des Pauperismus // Zeitschrift des Statistischen Bureaus. 2. Jg. 1856. – P.153-164.
20. Callan T, Nolan V., Whelan C. Resources, Deprivation and the Measurement of Poverty, Journal of European Social Policy. 1993;Vol. 22.
21. Abel-Smith B., Townsend P. The Poor and the Poverest, Occasional Papers on Social Administration, Vol. 17, London, G. Bell and Sons, 1961; Townsend P. Poverty in the United Kingdom / P.Townsend // Univ. of California. – Berkeley, 1979.
22. Orshansky M. Counting the Poor: Another Look at the Poverty Profile, Social Security Bulletin. 1965; Vol. 28. – p.44.
23. Кадомцева С.В. Роль социальных программ в сокращении бедности в России.// Вестник московского университета. Серия 6. Экономика.-1997.-№5. – С.42-57.
24. Ржаницина Л.С. Бедность в России: причины, особенности, пути уменьшения.// Экономист.-2001.-№4. – С.71-77.
25. Ravallion M. Poverty Comparisons: A Guide to Concepts and Methods, LSMS Working Papers, Vol. 88, Washington, D.C, World Bank, 1993.
26. Дорин А.В. Экономическая социология: Учебное пособие. – М.: ИП «Экоперспектива», 1997. – С . 254.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000